

"DEVONU LUG‘OTIT -TURK"DA SIFAT VA OTLAR TAVSIFI

Termiz davlat universiteti o‘zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi

Omonova Madina

Tel:990739823

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Devonu Lug‘otit-turk"dagi sifat va otlarning yasalishi, leksik o‘zgarishlari, o‘ziga xos xususiyatlari yoritildi.

Kalit so‘zlar: Sifat, ot," Devonu Lug‘otit -turk", fonetik, yasovchi qo‘shimchalar, tub va yasama otlar

Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu-Lug‘otit- turk" asari qomusiy asar hisoblanadi. Koshg‘ariyning ikkita asari bo‘lib, ulardan faqat "Devonu lug‘otit-turk"asari bizgacha yetib kelgan.Asarda tarix, tibbiyot, geografiya, etnografiya, hunarmandchilik va astronomiya haqida qimmatli ma‘lumotlar kelgan. "Devonu Lug‘otit- turk"- turkiy so‘zlar devoni. Mahmud Koshg‘ariyning turkiy tillarga bag‘ishlangan qomusiy asari. Asar 11-asrning 2-yarmida Markaziy Osiyo va G‘arbiy Xitoy hududida joylashgan turkiy qabila va urug‘lar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, shevalari, kelib chiqishi, joylashgan o‘rnini geografiyasi, astronomiyasiga oid ma‘lumotlarni jamlagan. Unda qabila va urug‘ tillariga oid lingvistik ma‘lumotlar ham berilgan. Tovushlar tahlilida unli va undosh tovushlar, cho‘ziq va qisqa unlilar, ularning urug‘lardagi talaffuzi va orfografiyasi, tillardagi fonetik hodisa va qonuniyatlarni izohlagan. Bundan tashqari asarda 250 dan ortiq maqollar va matallar, o‘nlab she‘riy baytlar berilgan. Asar qo‘lyozmasi 319 sahifali Turkiyaning Diyorbokr shahridan topilgan. Hozir ham Turkiyada Istanbulda saqlanadi. Bu nusxa asar yozilgandan 200 yillardan keyin 1266-yili Muhammad ibn Abu Bakr ibn Fotihal Soviy al-Damashqiy tomonidan ko‘chirilgan. "Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit-turk" asarida qayd etilgan ko‘pgina so‘zlarimizning hozir ham tilimizda ishlatishda davom etayotganligi shevalarni tilning 34 oziqlantiruvchi manba sifatida xizmat qilishini ta’kidlaydi. Mahmud Koshg‘ariyning " Devonu-Lug‘otit-turk"ida yig‘ilgan so‘zlarning ko‘plari hozirgi adabiy tilda faol qo‘llanadi: qatlama(yog‘da pishiriladigan qat-qat non), supurgi kabi so‘zlardir".[1] Mahmud Koshg‘ariyning asari arab tilida yozilgan, 8 mingdan ortiq turkiy so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish maqsadida arabcha harakatlar kelgan. Bunda muallif turkiy tildagi cho‘ziq va qisqa unlilar, yumshoq va qattiq tovushlar uchun maxsus harakatlardan foylanadi va so‘z boshidagi cho‘ziqlikni ikki alif bilan ko‘rsatadi yoki ikki xil talaffuzi bo‘lgan so‘zlarga ikki ishoradan foydalanadi. Masalan: azuqluq, erutmak so‘zlari. Bunda ham kasra, ham fatha qo‘yiladi va bu so‘zlar ikki shaklda: azuqluq va aziqluq; erutmak va eritmak ma‘nolarini ifodalagan.Koshg‘ariy bu asarda turk tiling juda boyligini, boshqa tillarda uning muqobili bo‘lmagan so‘zlarni ko‘rsatib, turk tilining ustunligini ko‘rsatadi.

Asarda birinchi otlar, keyin fe'llar izohlanadi. Morfologiyada soʻzlarni fe'l, ism, bogʻlovchiga boʻlib, soʻzlarning yasaliş va turlanish usullari koʻrsatiladi. Bizga maʼlumki, sifat soʻz turkumi predmetning belgisini bildiradi va qanday, qanaqa, qaysi soʻroqlariga javob boʻlib keladi. "Devonu-Lugʻotit-turk" da ham bir qancha sifatlar kelgan. Masalan, ujuz- arzon, alp- botir, berk- pishiq, mustahkam, oʻtruk- aldoqchi, chanach- qoʻrqoq, uzug- xushyor, ermago- erinchoq, eksuk- nuqsonli, axchak- choʻloq, erik- tirishqoq, baland- aziz, alchaq- zaif, baligʻ- yarador, essiz- yuzsiz, usayuq-gʻofil, axi, aqi- saxiy, en- oʻnqir, choʻnqir, bushaq- tashvishli kabi sifatlarini koʻrishimiz mumkun. "Lugʻatlarda hozirgi kunda kelib umuman boshqacha shaklda qoʻllanilgan va qanday boʻlsa shundayligicha yetib kelgan soʻzlar ham anchagina. Masalan, hozirgi kundagi ahmoq, berahm soʻzlari "Devonu lugʻotit-turk" asarida berilishicha endik deya nomlangan".[2]Otlar yasaliş xususiyatiga koʻra boshqa soʻzlardan farq qiladi. Mahmud Koshgʻariy otlarni tub va yasamaga ajratib tasniflab bergan. Bunda eng koʻp uchraydigani feʼldan yasalgan otlardir. "Men isteʼmoldagilarini berib, muhmallarini tashladim"-, deydi Koshgʻariy[3].Asarda uva soʻzi taom maʼnosida kelgan yasama soʻzdir, uning asosi uvdi feʼli ushatdi, burdaladi maʼnosini bergan, koʻmach- nonni anglatgan va bu soʻzning oʻzagi ham koʻmdi feʼlidan yasalgandir, jang maʼnosida keluvchi toʻqush soʻzi urdi feʼlidan kelib chiqqan. Qishlagʻ soʻzi qish va la+ gʻ soʻz yasovchi qoʻshimchalarni qoʻshib yasalgan. Hozirgi kunda ham bu soʻz qishlogʻ, qishlaq tarzida keladi. Lekin adabiy tilda "qishloq" deb qabul qilingan. Elak maʼnosida munxul soʻzi egasi maʼnosidagi naxala feʼlidan kelib chiqqan. Targʻaq- taroq soʻzi taradi feʼlidan yasalgan. Hozirgi kunda keng va faol qoʻllaniladigan shaxs oti yasovchi - chi affiksi ham uchraydi: ajaqchi- kulol(ajaq- idish), emchi- tabib (em- davo), sagʻun- tabib (sagʻ- sogʻ), supurgichi- supurgi sotuvchi, subsegar- farrosh, sipirindi- axlatning toʻplangan qismi(Hozir ham baʼzi shevalarda uchraydi) maʼnosida kelgan. Shuningdek, leksik jihatdan otlarning ayaq- kosa, kuzaku- kosov, ashich-qozon, minsaf- supurgi, otuk- dazmol, qurshagʻ- belbogʻ, yik- chok, sachu- toʻn cheti, qur- kamar, jik- chok, oshaq- oʻchoq, qurluq- mesh soʻzlari bilan kelgan. Umuman olib aytganda, asarda eng koʻp uchraydigan yasama soʻzlar feʼllardan ot yasalganidir. "Koʻpincha alif yolgʻiz kelmay, mum bilan birga (-ma shaklida) uchraydi: kokil maʼnosida kesma soʻzi kesdi feʼlidan olingandir. Koʻzni berkitmasin deb sochni kesiladigan joyni ham kesma deyiladi"[4].

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, Mahmud Koshgʻariyning "Devonu-lugʻotit-turk" asari turkiy xalqlar va turkiy tillar uchun oʻziga xos va qimmatli manbadir. Asarda turkiy tillarning soʻz yasaliş borasidagi keng moslashuvchanligi va ijodkorligini misollar orqali isbotlab bergan. Asar turkiy til tarixi va adabiyotida turkiy tilning soʻz yasaliş tabiati va xususiyatlarini oʻrganish buyicha tamal toshini qoʻya oldi va oʻzidan keyingi yaratilgan asarlar uchun muhim manba boʻlib xizmat qildi. Asar turkiy til haqidagi tushunchamizni shakllantirishga yordam berdi va uning

soʻz boyligini kengaytirishda muhim rol oʻynadi. Davrlar oʻtishi natijasida anchagina til taraqqiy etgan, fonetikasi, leksikasi, morfologiyasi oʻzgargan bolsa ham, bu asar hozirgi tilshunoslikning ham rivojlanishi va oʻsishiga taʼsir etgan. Turkiy tilda soʻz yasashning eng keng tarqalgan usuli asosni qoʻshimcha va old qoʻshimchalar bilan birlashtirishdir. Qoshgʻariy bu jarayonni asos maʼnosini oʻzgartiruvchi qoʻshimcha va old qoʻshimchalarning turli kontekstlarda qoʻllanilishini tahlil qilib tasvirlaydi. Masalan, "-li" qoʻshimchasi mansublik yoki sifatni bildiradi, chunki "guzel"da "guzelli" (goʻzallikka mansub) yoki "guzeldir" (goʻzal) boʻlishi mumkin. Qolaversa, Qoshgʻariy soʻz yasashida turli qoliplarni aniqlab, ot, sifat va feʼllarning oʻzagi, infikslari va oxiri bilan roʻyxatini taqdim etadi. Shuningdek, u arab, fors, xitoy kabi turkiy lugʻatning turli etimologik manbalariga izoh beradi. Qoshgʻariy soʻz yasashi tahlili bilan bir qatorda turli sotsiolingvistik omillarni ham koʻrib chiqdi. U turkiy tilning turli dialektlari va sotsiolektlarini aniqlab, tilga moʻgʻullar, turklar, arablar va forslar kabi turli etnik guruhlar va madaniyatlar taʼsirida qanday boʻlganini tushuntirib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saida Jumaniyozova ""Mahmud Koshgʻariyning "Devonu-lugʻotit-turk" asarida soʻz yasashi" 2.<http://www.newjurnal.org/>
2. Mahmud Koshgʻariy " Devonu-lugʻotit-turk "
3. Sultonova Zilola Musoxon qizi "Devonu-lugʻotit-turk" da narsa- buyum otlari